

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964437>

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XORAZMIY TA'LIM MODELIDAN FOYDALANISH

Burxonov S.A.,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.-m. f. n.,

Sadikova A.V

Nizomiy nomidagi TDPU professori v.b., p.f.n.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimi doirasida joriy etilayotgan "Xorazmiy ta'lim modeli"ning asosiy jihatlari va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Modelning maqsadi, tamoyillari, qo'llaniladigan usullar va kutilayotgan natijalar tahlil qilingan. Talabalarning algoritmik fikrlashi, ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlanishi usullari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xorazmiy ta'lim modeli, ta'lim integratsiyasi, o'qitish metodikasi, umumiy o'rta ta'lim sifati, fanlararo fikrlash, texnologik ta'lim.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХОРЕЗМИЙСКОЙ МОДЕЛИ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные аспекты и значение "Хорезмийской модели образования", внедряемой в рамках системы образования Узбекистана. Проанализированы цель модели, её принципы, применяемые методы и ожидаемые результаты. Рассмотрены методы развития алгоритмического мышления, творческих и практических навыков студентов.*

***Ключевые слова:** Хорезмийская модель образования, интеграция образования, методика преподавания, качество общего среднего образования, междисциплинарное мышление, технологическое образование.*

USING THE HAREZMI EDUCATIONAL MODEL TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract: *This article examines the main aspects and significance of the "Harezmi Educational Model", which is being implemented within the education system of Uzbekistan. The article analyzes the model's purpose, principles, applied methods, and expected outcomes. Methods for developing students' algorithmic thinking, creative, and practical skills are also discussed.*

Keywords: *Harezmi Educational Model, education integration, teaching methodology, quality of general secondary education, interdisciplinary thinking, technological education.*

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida (1) o'qitish metodikasini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, hozirgi kunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangi ta'lim modellari joriy etish talab etilmoqda.

Bu vazifalarni bajarish bo'yicha Innovatsion rivojlanish agentligi hamda Turkiya Hamkorlik va Muvofiqlashtirish Agentligi-TIKAning O'zbekistondagi Vakolatxonasi bilan hamkorlikda uyushtirilgan Turkiya davlatining Anqara shaxrida 2024-yil 1-9 iyun kunlari o'tkazilgan "Integratsion o'qish va o'qitish modellari asoslari" mavzusidagi Xorazmiy ta'lim modelini o'qitish va seminar treningida O'zbekistonlik doktorant va izlanuvchilar ishtirok etishdi. Ushbu seminarda izlanuvchilar ilmiy tadqiqot ishlari uchun kerakli bo'lgan bilimlarga ega bo'lishdi. Undan tashqari Turkiyaning Gazi Universiteti, Bashkent Universitetida tajriba almashishdi hamda maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Xorazmiy ta'lim modelining amalda qo'llanishi va ularning ta'lim jarayonlaridagi ahamiyati bilan yaqindan tanishishdi.

Mazkur ta'lim modeli ajoyib natijalarga poydevor bo'lishini hisobga olib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim fakultetida tanlov fan sifatida o'qitila boshlanmoqda.

Xorazmiy ta'lim modeli - informatika, tabiiy fanlar, matematika, ijtimoiy fanlar, san'at, texnologiya va sport fanlari bo'yicha fanlararo fikrlay oladigan, yodlash va monotonlikdan uzoqda bo'lgan, o'zining nazariy bilimlarini o'z mahorati bilan amalda qo'llay oladigan, tabiiy fanlarni o'zaro birlashtira oladiganlar va yutuqlarimiz garovi bo'lgan ilm-fan va ijtimoiy hayot, zamon yangiliklaridan xabardor bo'lgan farzandlarimizni milliy-ma'naviy qadriyatlarga moslashtirishni maqsad qilgan ta'lim modelidir. Bunda o'qituvchilar ta'lim jarayonini fanlararo yondashuv bilan rejalashtiradi, o'quvchilar o'zi to'plagan ma'lumotlariga asoslanib hayotdagi muammolarni aniqlaydi, yechimlar uchun g'oyalar va dizaynlarni ishlab chiqaradi. U o'qituvchining kasbiy malakasini oshirishga, o'qituvchi va o'quvchilarning texnologik vositalardan to'g'ri va samarali foydalanishiga, algoritmik fikrlash va masalalar yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi tufayli ta'limning boshqa jarayonlariga bevosita va sifatli ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan u barchamiz uchun umumiy ta'lim modeli bo'lish xususiyatiga ega.

Xorazmiy ta'lim modelining muhim elementlari bu uning fanlararo yondashuvi bo'lib, hayotdagi muammolarni aniqlash va bu muammolarni hal qilish uchun tanlangan o'qitish vositalaridir. Xorazmiy ta'lim modelida axborot kommunikatsion texnologiya, tabiiy fanlar, matematika, ijtimoiy fanlar, badiiy dizayn va sport fanlari o'zaro integratsiyalashib, dasturlash va o'qitish vositalaridan samarali foydalanilgan holda hisoblash fikrlash qobiliyatlari hayotga moslashtiriladi. Bunda turli fanlar yutuqlaridan unumli foydalanish talab etilib, fanlararo yondashuv va hamkorlikdan samarali foydalaniladi. Bu robototexnika va o'yin dizayni yordamida o'zini doimiy ravishda yangilab turuvchi ta'lim modeli bo'lib, talabalar didaktik o'yinlar paytida kashfiyotlar qiladilar.

Xorazmiy ta'lim modelining maqsadi:

- talabalarni hayot muammolarini aniqlash va ularga innovatsion va samarali yechimlarni ishlab chiqarish uchun tadqiqot va ishlanma usullarini hamkorlikda qo'llash jarayonida algoritmik fikrlashga o'rgatish, kognitiv va metakognitiv, ijtimoiy-emotsional, amaliy va jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

- talabalarni hayot davomida doimiy o'rganishga rag'batlantirish va texnologiyadan xavfsiz, unumli va ishlab chiqarishda axloqiy foydalanish bo'yicha xabardorligini oshirish orqali ularga zarur kompetensiyalarni berishga qaratilgan;
- o'quvchi va talabalarning hamkorlikda ishlash usuli;
- innovatsion texnologiyalar integratsiyasi va fanlararo yondashuv orqali o'quvchilarning qiziqishlari, ko'nikmalari va o'rganish ehtiyojlariga e'tibor qaratish;
- ishlab chiqish, joriy etish va foydalanish jarayonlarida tajriba orttirish;
- shaxsiy, tadqiqot, ishlab chiqish va kasbiy rivojlanishni takomillashtirish, hamda o'quv dizaynlarini baholash,
- o'quvchilarning kashfiyotlari yoki ilmiy yutuqlarini professional muhitda ommalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Manfaatdor tomonlar (ota-onalar, maktab jamoasi, olimlar, jamiyat, pedagogika institutlari, ekspertlar va boshqalar) nuqtai nazaridan Xorazmiy ta'lim modeli o'quvchilar, o'qituvchilar va ta'lim rahbarlari o'zlarining hayotiy tajribalari yoki ma'lum vaziyatlarda o'z yordami bilan real hayot muammolarini aniqlash va hal qilish jarayonida o'quv tizimiga maxsus o'zgartirishlar kiritish orqali o'quv jarayonining yanada samarali bo'lishini ta'minlashga intiladi. O'quvchilarning jarayon bo'yicha fikr-mulohazalarni to'plashi, jarayon bilan bog'liq ma'lumotlarni olimlar va mutaxassislar bilan tahlil qilishi, model bo'yicha ilmiy qo'llanmalar ishlab chiqarishi, ushbu nashrlar natijalarini o'rganishi va baholashi, modelni ishlab chiqishi, takomillashtirishi va yangilashda ishtirok etishi taqazo etadi.

Model tamoyillari:

Xorazmiy ta'lim modeli individual shug'ullanish va sifatli o'rganish uchun quyidagi to'rtta tamoyil ishlab chiqilgan.

1. Jarayon fan tarmoqlari (informatika; tabiiy fanlar va matematika, ijtimoiy fanlar, san'at, texnologiya va sport kabi fanlar) yutuqlaridan foydalangan holda fanlararo yondashuv asosida rejalashtiriladi, amalga oshiriladi va baholanadi.

2. Talabalar tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida, o'qituvchilar rahbarligida, mahalliy, milliy va umumbashariy miqyoslarni hisobga olgan holda hayotdagi muammolar aniqlanadi.

3. Haqiqiy muammolarni hal qilish uchun tanlangan o'qitish vositalari (kompyutersiz, blok yoki matnga asoslangan dasturlash, robototexnika, didaktik o'yinlar, sun'iy intellekt dasturlash kabi) qo'llaniladi.

4. Izlanish tadqiqot va loyiha usullaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Xorazmiy ta'lim modelida bolalar texnologiyadan foydalangan holda qanday qilib ishlab chiqarish mumkinligini kashf etadi, shuningdek, xavfsiz, axloqiy va milliy qadriyatlarni o'zlashtiradi, hamda o'qituvchilari bilan ilmiy tadqiqot usullari bilan aniqlangan jarayonni baholaydi va o'zgartirishlar kiritib maxsulot ishlab chiqadi. Bu talabalarning kundalik, real hayotiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish algoritmlarini loyihalash, bu muammoni qanday hal qilishni bosqichma-bosqich aniqlash va dasturlash yutuqlaridan foydalangan holda innovatsion g'oyalarni izlab topish jarayonidir.

Model asosida informatika fanini o'qitish natijasida ijtimoiy fanlar bo'limi bilan integratsiyalashadi, "Kompyuteriy fikrlash" ko'nikmasi hayotga moslashtiriladi, "Dasturlash va o'qitish" vositalaridan umumli foydalaniladi, fanlararo yondashuvni qayta talqin qilish orqali turli fanlar yutuqlaridan umumli foydalaniladi; Bunday hamkorlik natijasida "Robotik va O'yin" dizayni yordamida qiziqarli maxsulotlar ishlab chiqaradigan va natijalarni ilmiy baholash natijasida o'zini doimiy ravishda yangilab turadigan ta'lim modeli paydo bo'ladi.

Xorazmiy modelida qo'llaniladigan faol o'rganish usullari amaliy maqsadlar va ularning yechimini kashf qilish orqali o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'qituvchi, ota-onalar va o'quvchilarning fikr-mulohazalari hisobga olinib, tabiiy fanlar, matematika, tarix, ona tili, axborot texnologiyalari fanlari birgalikda o'rganiladi. Ma'lum bo'lishicha, mavzularni o'qituvchilar bilan birgalikda o'rganish, tahlil qilish o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida taqqoslash va o'rganilgan ma'lumotlarni real hayotga oson tadbiiq etish imkonini beradi.

Ushbu modelida talabalar hayotiy muammolarni aniqlash va ularga innovatsion va samarali yechimlarni ishlab chiqarish uchun ilmiy-tadqiqot usullarini hamkorlikda qo'llash jarayonida algoritmik fikrlash, kognitiv va metakognitiv, ijtimoiy-emotsional, amaliy va jismoniy ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'qituvchilar esa o'quvchilarning qiziqishlari, ko'nikma va o'rganish ehtiyojlariga e'tibor qaratib, ta'limni rivojlantirish, amalga oshirish va baholash jarayonlarida tajriba orttirish orqali ularning shaxsiy, ilmiy-tadqiqot va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Hamkorlikda ishlash natijasida innovatsion texnologiyalar integratsiyalashib, professional muhitda fanlararo yondashuv dizayn va ilmiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishishga poydevor bo'ladi. U kashfiyot jarayonining barcha jabhalarida har bir o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shib, ular ishlab chiqqan va taqdim etayotgan ilmiy hulosalarini qo'llash orqali ta'limning barcha darajalarida ekotizimda hamkorlikda ishlash va tajriba almashish jarayoniga samarali hissa qo'shishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.
3. E'gitingde kullanilan yapay zekâ araçlari. Öğretmen el kitabı. - t.c. millî eğitim bakanlığı yenilik ve eğitim teknolojileri genel müdürlüğü- 2024 – Ankara
4. Burxonov S.A., Sangirova Z., Qo'nishev J. Fizika. Boshlang'ich saboqlar. Toshkent. "Zamin nashr", 2020-yil. 336 bet
5. Burxonov S.A. «Tabiatshunoslik» fanini qanday samarali o'qitish mumkin? "Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuv" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. I-qism. 04.10.2024 yil. 51-53 bet
6. Vlasova, V.K., Khamatvalieva, R.R., Zakirova, V.G., Zhumabayeva, A.E., Sadikova, A.V. The Development of Integrative Qualities of Primary School Teachers in the Context of Distance Learning // Education and Self Development, 2022, 17(3), страницы 187–201